

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA KREDIT SIYOSATI VA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH

Djafarova Shaxlo Axmadiyevna

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi  
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

**Annotatsiya:** Tijorat banklar tomonidan kredit berish yanada kengiyib bormoqda. Ular davr taraqqiyoti bilan shahdam qadam tashlash maqsadida hamda raqobat kurashiga bardosh bera olishda o'z hizmat turlarini ko'paytirishlari va rivojlantirishlari shart. Bu o'z navbatida tijorat banklari xususiy kapitalining milliy va halqaro standartlar darajasiga yaqinlashtirish bo'yicha ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tadqiqotlar olib borilishini taqazo etmoqda. Kredit operatsiyalarini amalga oshirishda muammoli kreditlarning yuzaga kelishi, ularning buxgalteriya hisobini xalqaro standartlari talablari asosida tartibga solishni zaruriyat qilib qo'ymoqda. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, tijorat banklarida kreditlar bo'yicha to'lash va ehtimoliy yo'qotishlar zahiralarini jarayolari hisobini takomillashtirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** bank, tijorat banklari, kredit, kredit siyosati, kredit portfeli, kreditni monitoring qilish, kredit xizmatlari, kredit ajratish, kreditni undirish.

## KIRISH

Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bank tizimini liberallashtirish sharoitida kredit operatsiyalari muhim o'rinn tutadi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari bank daromadlarini shakllantiruvchi faoliyat bo'lganligi sababli kredit portfelining sifat darjasи barqarorligini ta'minlash bugungi kunda banklarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Kreditlash tijorat banklari uchun birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat turi hisoblanadi, chunki tijorat banklari kredit portfeli sifatining pasayishi ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qiladi, ya'ni muddati o'tgan kreditlarning kredit qo'yilmalari hajmidagi salmog'inining oshishi bankning likvidligini keskin pasayishiga olib keladi. Shu sababli, tijorat banklari kredit portfelini samarali tarzda boshqarish xo'jalik sub'ektlarining kredit mablag'lariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Bu borada Prezidentimizning Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida, "Eng yomoni, istiqbolli yirik loyihalarni belgilash va amalga oshirishda jiddiy xatoliklarga yo'l qo'yilgani, xorijiy kreditlar samarasiz ishlarga sarflangani iqtisodiyot rivojiga xalaqt bermoqda. Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi" deb ta'kidlab o'tganlari bejiz emas. Respublikamizda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlari xajmining oshishi, ulardan foydalananayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mikdorining

ko'payishi, banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish, ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash vazifalari banklar kredit portfeli ustidan doimiy kuzatib borishni dolzarb masala ekanligini asoslab beradi.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar o'tasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklararo raqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank xizmatlarining miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi bank tizimining samaradorligini oshirish iqtisodiyotning real sektorini kreditlashda banklarning faol ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Biroq, mamlakatimiz tijorat banklari kreditlash faoliyatini olib borishda bir qancha qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda tijorat banklarining daromad keltiruvchi aktivlarining asosiy qismini tashkil etuvchi kreditlar orasida muammoli aktivlarning mavjudligi sezilarli bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek, «muammoli kreditlarni qaytarish banklarning imkoniyatlarini yanada kengaytirishini, ularni undirish bo'yicha banklar, qarzdor korxonalar, kompaniya va uyushmalar, hududlar rahbarlari birgalikda ish olib borishi zarurligi lozim». Kredit portfeli sifati va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlari o'sishining mo'tadil darajasiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro miyosda amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab berilgan.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlashining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan bolsak - kapital muomalasi va aylanishi yotadi. Jamiyatda kapital muomalasi va aylanishi doimo ham bir maromda amal qilmaydi, bular yuqorida ta'kidlanganidek qator omillar bilan izohlanadi.

Kreditning mohiyatiga qator iqtisodchi olimlar tegishli ta'riflami shakllantirgan. Xususan, V.A. Shegorsova tahriri ostida tayyorlangan darslikda, «Kredit - qaytarish va toiov sharti bilan qarzdorga vaqtinchalik foydalanish maqsadida pul mablagl yoki moddiy buyum ko'rinishida berish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir» tarzidagi ta'rifi shakllantirilgan<sup>1</sup>.

Professor O.I.Lavrushin tahriri ostida nashr etilgan darslikda kreditning mohiyatiga aniq ta'rif berilmagan. Biroq, ulaming fikricha, kredit ijtimoiy munosabatlaming bir ko'rinishi boiib, iqtisodiy kategoriadir. Shu bilan birga, kredit

<sup>1</sup> Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под ред. проф.-Щегорцова В.А. М.:ЮНИТИ-ДАНА, 2005. -С. 175.

turlicha ijtimoiy munosabatlarda emas, balki iqtisodiy munosabatlami aks ettiruvchi qiyamatning harakati jarayonida namoyon boladi. Darslikda, kreditning mohiyatini aniq aks ettirish uchun uning tarkibi, harakat qilish jarayoni va vujudga kelish asosiga e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlanadi<sup>2</sup>.

Boshqa rossiyalik iqtisodchi olimlar «Pulli (tovarli) kredit toiov asosida amalga oshiriladigan bir toifadagi ekvivalentning turli vaqtdagi o'zaro harakatining yig'indisir », degan ta'rifni berishgan<sup>3</sup>.

O'zbekistonlik iqtisodchilardan professor Sh. Abdullayeva tomonidan nashr ettirilgan darslikda: «Kredit - bu vaqtincha bo'sh turgan pul mablaglarini pul egasi yoki boshqalar tomonidan ma'lum muddatga, haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan iqtisodiy munosabatlar yig'indisidir» tarzidagi ta'rif berilgan<sup>4</sup>.

Kreditning iqtisodiy mohiyatiga berilgan ta'riflardan ko'rinish turibdiki, bu borada iqtisodchi olimlaming fikrlari bir - biridan sezilarli darajada farq qiladi. Shu bois, «Kredit - tegishli tamoyillar asosida (qaytarishlik, to'lovililik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik) qiymat va moddiy buyum ko'rinishida, jismoniy va yuridik shaxslarga taqdim etiladigan iqtisodiy kategoriyalarning bir shaklidir» tarzidagi ta'rifni shakllantirishgajazm etdik.

Kreditning mohiyatini yanada aniqroq va toliqroq ochib berishda uning subyektiv va obyektiv mohiyatiga e'tibor qaratish lozim. Kredit munosabatlarining vujudga kelishida, shuningdek, uning mohiyatini ochib berishda kreditning subyektiv mohiyati ham alohida o'rin tutadi. Kreditning subyektiv mohiyati bir - biriga bog'liq bo'lgan «kreditor» va «kredit oluvchi»ning munosabatlarida namoyon bo'ladi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston respublikasi banklarida kredit siyosati va kredit risklarini boshqarish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Banklar-moliyaviy bozorning tashkiliy tuzilishining bir kismi bo'lgan kredit tashkiloti bo'lib, jismoniy va yuridik shaxslarning vaktinchalik bush turgan pul mablag'larini jamg'arish, yig'ish, jamlangan (akkumulciya kilingan) mablag'larni uz nomidan kaytarib berishlilik, muddatlilik asosida berish xamda mijozlarning topshirigiga kura, tulovlarni amalga oshirish vazifalarini amalga oshiradilar.

Banklar – bu kreditning rivojlanishi natijasidir. Shuning uchun kredit bankga nisbatan asos bo'lib xisoblanadi. Kreditlashtirishda kredit bitimidagi ikki tomonning

<sup>2</sup> Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред. засл. деят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И. Лав шурина. -5 -е изд., стер. -М.: КНОРУС, 2007. -С. 237 - 238.

<sup>3</sup> Деньги, кредит, банки: Учеб. - 2 - е изд., перераб. и доп./под ред. В.Иванова, Б.И-Соколова. -М.: ТК Велби, изд -в о Проспект, 2008. -С.428.

<sup>4</sup> Абдуллаева Ш.З Пул, кредит вабаахлар. -Т.: «Икгосод - Молия», 2007,165-6.

manfaatlarini ko'rsatadi. Banklar, xo'jalik tashkilotlarning manfaatlaridan kelib chikkan holda ularning talablarini kondirish maqsadida ish yuritadi. Qarz oluvchining iqtisodiyotini rivojlantirish, uning rakobatbardoshligi va foydaligi, ishlab chikarish va muomalasining to'xtovsiz olib borilishi uchun beriladigan kreditlar bank kreditlashining maqsadi hisoblanadi. Shu bilan birga mijozning manfaatlari kredit operatsiyalarini amalga oshirish uchun xal kiluvchi omil bo'lib hisoblanmaydi.

Kreditlash sharoitida boshqa tomoni – bank-kreditorning manfaatlariga xam riosa qilish zarur. Uning manfaatlari mijozning manfaatlari bilan to'g'ri kelmaydi. Bank uchun xamma vakt shaxsiy va jalg kilingan kapitallarini kaerga joylashtirishi bo'yicha imkon bor. Lekin, uning imkoniyatlari ko'pincha chegaralangan. Ma'lumki tijorat banklari, Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan iqtisodiy normativlarga, mavjud resurslariga va anik chegaralangan imkoniyatlariga riosa kilgan holda o'z faoliyatini olib boradi. Mijozlarga beriladigan kreditlarning xajmi joriy likviklik normativlariga, aktiv va passivlarning muddatlarining muvozanatiga, markaziy bankning markaziy zaxiralariga ajratiladigan mablag'lar xamda shaxsiy va jalg kilingan resurslar chegaralangan proporsiyalariga bog'liqdir.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida tijorat banklarining kredit faoliyati O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 22.02.2000 y. N 429 tasdiqlangan "Tijorat banklari kredit siyosatiga nisbatan qo'yiladigan talablar to'g'risida nizom"ga binoan olib boriladi.

Bankning kredit siyosati – kreditlash jarayonida yuzaga keluvchi tavakkalchilikni boshqarishda bank rahbariyati tomonidan qabul qilinadigan choralar va uslublarni belgilovchi hamda bank rahbariyati va xodimlarini kreditlar portfelini samarali boshqarishga doir ko'rsatmalar bilan ta'minlovchi hujjatdir. Kredit siyosati bankning kredit faoliyati maqsadlarini aniq ko'rsatishi va aniqlab berishi shart. Shunga ko'ra bank kredit siyosatida uning maqsadi va strategiyasi, vakolatlar darajasi va mas'uliyatni taqsimlash, kredit turlari, kreditlarning to'planishi, kreditlarni to'lash, qarzdorlarga doir moliyaviy axborot, garov ta'minotiga nisbatan qo'yiladigan talablar, kredit monitoringiga nisbatan qo'yiladigan talablar, foiz stavkalari, bog'liq shaxslar bilan bajariladigan operatsiyalar, ko'zda tutilmagan holatlar moddalari, kredit portfelini audit qilish hamda bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan hisobotlar bo'yicha talablar bayon qilinadi.

Tijorat banklarida kredit portfelini samarali boshqarish muhim vazifalardan biridir. Bank kredit portfelini boshqarish tizimi faoliyatining zamirida to'rt asosiy tamoyil turadi:

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida» gi talablari doirasida bank kreditlari asosiy mezonlar bo'yicha muntazam ravishda baholanadi;

Ikkinchidan, bank tomonidan ajratilayotgan kreditlarning ta'minlanishi ustidan nazoratni amalga oshirish. Bunda shuni hisobga olish zarurki, ta'minot kredit

berilayotganda uni so'ndirishning bosh manbai hisoblanmaydi. Bank ta'minotdan kredit so'ndirilmasligi risklarini kamaytirish maqsadida foydalanadi, xolos.

Uchinchidan, kredit monitoringini amalga oshirish. Kredit portfeli monitoringi quyidagilarni nazarda tutadi:

- a) kreditni monitoring qilish;
- b) kredit portfelini monitoring qilish.

Hozirgi paytda iqtisodiyotni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan bank kreditlar hajmi oshishi, bank kreditlaridan foydalanayotgan turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shaklidagi mijozlar miqdori ko'payishi va banklar tomonidan berilayotgan kreditlarni oqilona joylashtirish va ular samaradorligini oshirish, berilgan kreditlar hamda ular bo'yicha hisoblangan foizlarni o'z vaqtida undirib olishni ta'minlash banklar kredit portfeli ustidan doimiy monitoring olib borishni talab etmoqda. To'rtinchidan, kredit portfelini auditdan o'tkazish va kredit risklarini boshqarish. Kredit portfeli ichki va tashqi auditorlar tomonidan audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Bank kredit siyosatning asosiy maqsadi – bu bank filiallari tomonidan mijozlarning kredit mablag'lariiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, kreditlash jarag'nida amaldagi qonunchilik talablari va me'yorlarga rioxasi etish, kreditlash cig'sati va kreditlash tartibotlarining yaxlitligini kafolatlash, tavakkalchiliklarni muntazam ravishda diversifikatsiyalash, bank likvidliligin va kreditlash jarag'nini to'g'ri hamda o'rnatilgan tartibda amalga oshirib bank faoliyatining foydaliligi va samaradorligini ta'minlashdir.

Siyosatning strategiyasi quydagilardan iborat:

- a) yuqori sifatli aktivlarni tashkil etish va daromadlilik hamda likvidlilikning muntazam maqsadli darajasini ta'minlash imkonini beradigan tavakkalchilikka yo'l qo'yish va uni maqsadga muvofiq boshqarish;
- b) yuqori sifatli kredit portfeli va uni samarali boshqarishni ta'minlay oladigan malakali kredit xodimlari jamoasini shakllantirish;
- c) bankning strategik maqsadlariga mos keladigan iqtisodiy jihatdan istiqbolli, rentabelli loyihalarni moliyalashtirishga qisqa va uzoq muddatli ssudalar berish;
- d) bank mahsullari rentabelliligin ta'minlash maqsadida kredit resurslarini jalb etish, jalb etilgan resurslar muddatlaridan kelib chiqqan holda kreditlash jarayonini amalga oshirish;
- e) bank mijozlari bilan uzoq muddatli, o'zaro manfaatli munosabatlarning rivojlanishiga ko'maklashish;
- f) kredit faoliyatini amalga oshirishda amaldagi qonunchilik va Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga rioxasi etish;
- g) kredit faoliyatini amalga oshirishda amaldagi qonunchilik va Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan me'yorlarga rioxasi etish;
- h) kreditlashni mazkur soha bilan bog'liq bankning boshqa ichki siyosat va tartibotlariga asoslangan holda amalga oshirish;
- i) rivojlanib borayotgan iqtisodning shakllanib borayotgan talablarini qondirishga qodir bo'lgan moslashuvchan bank xizmatlari tashkil etilishini ta'minlash.

Kredit xizmatlari mulkiy maqomidan qat'iy nazar qishloq xo'jaligi korxonalariga, ishlab chiqarish, savdo, ta'minot va xizmat ko'rsatish sohalariga, fuqarolik hamda boshqa qurilishlar, eksport va import operatsiyalarini amalga oshirishga hamda yakka tartibdagi tadbirkor, kichik biznes sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklariga taqdim etilishi mumkin.

Kredit ajratish va so'ndirilishi ustidan monitoring jarayoni Markaziy bankning kreditlashga oid me'yoriy xujjatlari hamda banklarning ichki kredit tartibotlariga asosan amalga oshiriladi.

Bank kredit portfelining diversifikatsiyasi ko'p hollarda bozor kon'yunkturasi bilan belgilanadi (demografik omillar, mintaqadagi aholining ma'lumot darajasi, texnologik va boshqa omillar). Kengash tavakkalchilikni maqbul darajada diversifikatsiya qilish va maksimal darajada foyda olishga intilib, bank rahbariyatiga ushbu maqsadlarga erishish uchun hamkor banklar xizmatlaridan foydalanish vakolatini beradi. Banklardan sotib olingan kredit resurslari minimal tavakkalchilikka ega bo'lishi shart.

Kreditlarni tasnif qilishning belgilangan tartibi va ehtimoliy zararlarni qoplash uchun zahira tashkil qilishning o'rnatilgan tartibi lizing hamda faktoring operatsiyalari bo'yicha qarzlarga ham tatbiq etiladi.

Kreditning samaradorligini ta'minlash maksadida dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida kreditlashning biz uchun yangi koidasi kullaniladi. Bu koida kreditlashda «5 «S» lar koidasi» deb yuritiladi.

«5 «S»lar qoidasi» ga asosan xar bir «S» buyicha korxonaning faoliyati taxlil kilib chikiladi va korxona faoliyati talabga javob bersagina korxonaga kredit beriladi. +oidaga asosan «S» xarflari korxonaning xujalik faoliyatini quyidagi jixatlarini ifodalaydi.

Character – qarz oluvchining xarakterini baholash, hamda bozordagi obrusi;

Capacity – qarz oluvchining boshlagan ishini oxiriga etkaza olish, tegishli daromad olish, hamda bank kreditlarini kaytarib berish qobiliyati;

Capital – qarz oluvchining sarmoyasini etarliligi;


Conditions – shartlar. Bunda iqtisodiy muxim va mazkur biznesni rivojlanishi nazarda tutiladi.

Collateral – garov (kafolat, kafillik, sugor'ta polisi, tovar moddiy boyliklar) va boshqalar<sup>5</sup>.

Shunday qilib banklar tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy tamoyillarini quyidagi sxemada kursatish mumkin.

---

<sup>5</sup> A. A.Omonov, T.M. Qoraliyev. Pul, kredit va banklar. Darslik. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti. - T.: «Iqtisod-Moliya», 2012. -324 b.



### **1-rasm. Banklar tomonidan beriladigan kreditlarning asosiy tamoyillari<sup>6</sup>**

Mamlakatimiz va xorijdagи tanikli bank mutaxassislari bu kadamni ijobji qabul qilishdi. Ushbu koidalarning uziga xos muxim xususiyatlari kuyidagilardan iborat. Birinchidan, endi ob'ekt emas, balki sub'ekt kredit oladi va, ikkinchidan kredit qaytarilishning ta'minlanganligi ssuda berishning majburiy sharti xisoblanadi. Kredit berishning kuydagи printsiplari: tulash; qaytarish; muddatlilik; maksadli foydalanish anik belgilangan.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bank kreditlari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda aniq hamda to'g'ri aks ettirish davrida aks ettiriladi. Kredit ajratilgandan so'ng kredit monitoringi o'tkazilishi ustidan nazoratni kuchaytirish. Berilgan kreditlarni monitoring qilish orqali kreditdan qanday maqsadda foydalanilayotganligi va qay darajada samaradorlikka erishilayotganligini aniqlash mumkin. Banklarda kreditni berish va undirish jarayoni yuzasidan amalga oshiriladigan ishlarni ommaga yetkazish. Yana shu yo'l bilan shubhali va umidsiz ssudalarning tasniflangan kredit hajmidagi salmog'ini qisqartirish. Banklarda yuqori likvidlikka ega bo'lgan garov obyektlaridan foydalanishni kuchaytirish. Kreditlarni undirishni kuchaytirish maqsadida bank xodimlari va mijoz o'rtaсидagi aloqadorlikni kuchaytirish va mijoz o'rtaсиda doimiy ravishda ma'lumot olib turishni tashkil etish. Muxtasar qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlar hajmi yil o'sib bormoqda va bu mamlakatimiz iqtisodiyotini o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan bir qatorda banklar o'zlariga katta xatarni ham olishmoqda. O'yaymizki, bildirilgan takliflarimizni amaliyatga tadbiq etilishi, tom ma'noda tijorat banklarining kredit riski va bu orqali bankning moliyaviy ahvoliga salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning asosiy vazifalari qo'yidagilardan iborat bo'lishi, bank faoliyatida yuzaga keluvchi xatarlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bular:

- kredit xatari darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni baholash;
- ssudalarni xatar guruhlari bo'yicha tasniflash;

<sup>6</sup> Arzikulov O. Economic-statistical analysis of the regional development of small enterprises and micro-firms in the conditions of accelerated economy //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 92- 105.

- kredit portfelini kredit xatari, mijozlar tarkibi va ssudalar tarkibi bo'yicha ma'qllashtirish;
- kredit xatarini prognoz qilish maqsadida qarz oluvchining kreditga layoqatlilik darajasini va uning moliyaviy ahvoli o'zgarishi ehtimolini aniqlash;
- muammoli ssudalarni oldindan aniqlash;
- yaratilayotgan zaxiralarni yetarlilagini baholash va uni o'z vaqtida ta'minlab borish;
- kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish, ularning likvidlilagini va daromadlilagini ta'minlash;
- bankning kredit siyosatini ishlab chiqish va uni kredit portfelining sifatli tahliliga asoslangan holda yuritishdan iborat.

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda yuqoridagilarga amal qilish, bankning kredit faoliyati samaradorligini oshiradi, o'z navbatida, bankning ko'radigan foydasi ham oshadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni savaralihamalga oshirish tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" 2017 yil 7 fevral, PF-4947-soni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligrini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi № 3620 qarori. 2018 yil 23 mart.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori bilan tasdiqlangan chora-tadbirlar Dasturi 2017 yil 12 sentyabr.
5. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017
6. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
7. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
8. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b

9. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: : “O’zbekiston”, 2017. – 488 b
- A. A.Omonov, T.M. Qoraliyev. Pul, kredit va banklar. Darslik. Soliq akademiyasi, Toshkent moliya instituti. - Т.: «Iqtisod-Moliya», 2012. -324 b.
10. Деньги, кредит, банки: Учебник для вузов. Под ред. проф.-ЩегорцоваВ.А. М.;ЮНИТИ-ДАНА, 2005. -С. 175.
11. Деньги, кредит, банки: учебник/кол. авт.: под ред.засл.дeят. науки РФ, д.э.н. проф. О.И. Лав шурина. -5 -е изд., стер. -М.: КНОРУС, 2007. -С. 237 - 238.
12. Деньги, кредит, банки: Учеб. - 2 - е изд., перераб. и доп./под ред. В.Иванова, Б.И-Соколова. -М.: ТК Велби, изд -в о Проспект, 2008. -С.428.
13. Абдуллаева Ш.З Пул, кредит вабаахлар. -Т.: «Икгосод - Молия», 2007,165-6.
14. Абдикирамова Д.Р. Банк кредитлари гаров таъминотини баҳолаш. Монография. – Т.: «Иқтисод-Молия», 2016. – 168 б
15. Rashidov O.Yu. va boshqalar. Pul, kredit va banklar. Darslik. –Т.: Cho’lpon, 2011. -328 bet.
16. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. Darslik. - Т.:Iqtisod-moliya, 2017.
17. Меркулова И.В., Лукьянова А.Ю. Деньги, кредит, банки. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2010. – 352 стр.
18. Arzikulov O. Economic-statistical analysis of the regional development of small enterprises and micro-firms in the conditions of accelerated economy //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 92- 105.
19. <http://www.lex.uz> – O’zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
20. <https://www.imv.uz> – Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
21. <http://www.soliq.uz> – O’zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo’mitasi sayti
22. <http://www.stat.uz> – O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi sayti